OCTO RESTART KREDITINI BERISH TO‘G‘RISIDAGI
___-SONLI SHARTNOMA

Toshkent sh. **«___» _____ 20__ y.**

OGOHLANTIRISH!

Kredit bo’yicha majburiyatlarni o’z vaqtida bajarmaslik:
- umumiy qarzdorlik miqdorinining oshishiga;
- qarzni undirish bo’yicha majburiy ijro choralarining ko’rilishiga;
- kredit bo’yicha yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun nomingizdagi mol-mulkka undiruv qaratilishiga, agarda mol-mulk sotilgandan tushgan mablag’ qarzni to’liq qoplashga yetmasa, qolgan qarzdorlik zimmangizda saqlanib qolishiga;
- undiruv uchunchi shaxs tomonidan garovga qo’yilgan mol-mulkka qaratilishiga yoki qarzdorlikni qoplash majburiyatining kafil zimmasiga yuklatilishiga;
-kafil yoki garovga ko’yuvchi tomonidan qoplangan qarzdorlik summasining keyinchalik sizdan undirilishiga;
- hisobvaraqlaringizdagi mablag’lar xatlanishiga;
-sudning yoki davlat ijrochisining qarori bilan O’zbekiston Respublikasidan chiqish huquqingiz vaqtincha cheklanishiga;
- kredit tarixingizga salbiy ta’sir ko’rsatib, kelajakda kredit olish imkoniyatingizni cheklanishiga olib kelishi mumkin.

Kreditning to‘liq qiymati:	Shartnoma tuzilgan sanadagi kreditning to‘liq qiymati:
yillik ___ (_____) foiz	_____ (so‘z bilan) so‘m Kredit summasi_____ _____ (so‘z bilan) so‘m Foizlar summasi_____ _____ (so‘z bilan) so‘m Boshqa to‘lovlar summasi_____ _____ (so‘z bilan) so‘m

"Octobank" AJ, bundan keyin "Bank" deb ataladi, bir tomondan Boshqaruvchi direktor – Chakana blok rahbari _____ __.__.20__ yildagi №__ taqdim etilgan ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi, va O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi _____, pasport seriyasi: _____, __.__.20__ yildagi _____ tomonidan berilgan,

bundan keyin "Qarz oluvchi" deb ataladi, ikkinchi tomondan ushbu Shartnomani (bundan keyin Shartnoma deb ataladi) quyidagicha tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Bank Qarz oluvchiga kredit taqdim etadi, Qarz oluvchi esa ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq olingan kredit summasini Bankka to‘liq qaytarish va undan foydalanganlik uchun Foizlarni to‘lash majburiyatini oladi.
1.2. Kredit qaytarishlilik, to‘lovlilik, ta’minlanganlik va muddatlilik shartlari asosida beriladi.
1.3. Kredit ajratish maqsadi: Qarz oluvchi tomonidan kredit tashkilotlari bilan tuzilgan kredit shartnomasi(-lari) bo‘yicha barcha pul majburiyatlarini (asosiy qarz va Bank tomonidan qaror qabul qilingan sanaga hisoblangan to‘lanishi lozim bo‘lgan foizlarni o‘z ichiga olgan holda) to‘liq bajarish (qayta moliyalashtirilayotgan kreditlar soniga mos ravishda satrlar soni belgilanadi): №_____ «___» _____20 yildagi, _____ tomonidan berilgan (qayta moliyalashtirilayotgan kredit shartnomalarining rekvizitlari: raqami, sanasi, kreditorning nomi ko‘rsatiladi) (bundan buyon — qayta moliyalashtirilayotgan kredit shartnomalari). Qarz oluvchining tranzit hisobvarag‘iga uchinchi bankdagi qayta moliyalashtirilayotgan kreditni so‘ndirish uchun mo‘ljallangan pul mablag‘lari o‘tkazilgan sanadan boshlab qayta moliyalashtirilayotgan kredit bo‘yicha barcha pul majburiyatlari to‘liq bajarilgan sanagacha hisoblangan foizlar Qarz oluvchi tomonidan to‘lanadi.
1.4. Asosiy tushunchalar:
Qayta moliyalashtirish krediti — Qarz oluvchining ilgari tuzilgan kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarini, shu jumladan asosiy qarz summasini qaytarish va to‘lanishi lozim bo‘lgan foizlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarini bajarish maqsadida Bank tomonidan Qarz oluvchiga kredit ajratilishi.

2. KREDITNI BERISH VA SO‘NDIRISH TARTIBI

2.1. Kredit quyidagi shartlar asosida taqdim etiladi:
2.1.1. Kredit summasi: _____ (_____) so‘m;
2.1.2. Kreditdan foydalanish muddati: ____ (_____) oy;
2.1.3. Foiz stavkasi:

- Bazaviy foiz stavkasi – _____% (_____) yillik;
- Oshirilgan foiz stavkasi – _____% (_____) yillik; mazkur stavka Qarz oluvchi ushbu Shartnomaning 1.3-bandida nazarda tutilgan shartlarni buzgan taqdirda qo‘llaniladi. Oshirilgan foiz stavkasi kredit bo‘yicha asosiy qarzning haqiqiy qoldig‘iga ushbu Shartnomaning 2.20-bandida belgilangan sanadan boshlab hisoblanadi va ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugaguniga qadar qo‘llaniladi.

2.1.4. Kredit valyutasi: O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida;
2.1.5. Kredit berish muddati: ushbu Shartnomaning 3.1-bandida nazarda tutilgan kredit qaytarilishining ta’minoti mavjud bo‘lgan taqdirda, 3 (uch) bank kuni ichida, Bank tomonidan kredit summasini Qarz oluvchining qayta moliyalanadigan kredit bo‘yicha kreditor hisoblangan bankdagi tranzit hisobvarag‘iga o‘tkazish yo‘li bilan;
2.1.6. Foiz stavkasi turi: qat’iy belgilangan;
2.1.7. O‘zaro munosabat va kreditni o‘zlashtirish usuli: Qarz oluvchining Bankka shaxsan kelishi orqali, Bank tomonidan kredit summasini Qarz oluvchining qayta moliyalanadigan kredit bo‘yicha kreditor hisoblangan bankdagi tranzit hisobvarag‘iga o‘tkazish yo‘li bilan;
2.1.8. So‘ndirish tartibi: So‘ndirish jadvaliga (1-ilova) muvofiq annuitet/differensial usulda.
2.2. Qarz oluvchi tomonidan olingan kreditni hisobga olish uchun Bank imzolangan/aksept qilingan ariza asosida Qarz oluvchiga tegishli hisobvaraqlarni ochadi.
2.3. Bank Qarz oluvchining arizasiga ko‘ra Shartnoma bo‘yicha olingan pul mablag‘larini 1.3-bandda ko‘rsatilgan qayta moliyalanadigan kreditlar bo‘yicha qarzdorlikni so‘ndirishga to‘liq hajmda yo‘naltiradi.

2.4. Kredit ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan 1-ilovada keltirilgan Shartnoma bo‘yicha So‘ndirish jadvaliga muvofiq so‘ndiriladi. Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar Bankka So‘ndirish jadvaliga muvofiq asosiy qarzni so‘ndirish uchun nazarda tutilgan sanalarda to‘lanadi. So‘ndirish jadvalida to‘lanishi lozim bo‘lgan asosiy qarz va muddatli foizlar miqdorlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, Qarz oluvchi ular bilan tanishganligini o‘z imzosi bilan tasdiqlaydi.
2.5. Agar muddatidan oldin so‘ndirish yoki jadval bo‘yicha so‘ndirish sanasi Bankning ish kuni bo‘lmagan kunga to‘g‘ri kelsa, kredit bo‘yicha so‘ndirish keyingi bank ish kuniga ko‘chiriladi.
2.6. Ish kunlari soat 22.00 dan keyin yoki dam olish va/yoki bayram kunlari bank hisobvaraqlariga kiritilgan pul mablag‘lari keyingi ish kunida hisobvaraqqa o‘tkaziladi.
2.7. Agar Qarz oluvchi asosiy qarzni ushbu Shartnomada belgilangan sanagacha so‘ndirmasa, Bank muddatida so‘ndirilmagan qarzdorlik summasini muddati o‘tgan ssudalar hisobvarag‘iga o‘tkazadi. Qarz oluvchi qarzdorlik muddati o‘tgan ssudalar hisobvarag‘ida turgan har bir kun uchun ushbu Shartnomaning 2.13-bandida nazarda tutilgan stavka bo‘yicha foizlar to‘laydi.
2.8. Qarz oluvchidan yoki uchinchi shaxslardan ushbu Shartnoma bo‘yicha asosiy qarz va foizlarni so‘ndirish hisobiga kelib tushayotgan pul mablag‘lari yoki Qarz oluvchi/Kafilning har qanday hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari, ko‘rsatmalardan qat’i nazar, ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni so‘ndirishga quyidagi tartibda yo‘naltiriladi:
2.8.1. muddati o‘tgan foizlar (ushbu Shartnomaning 2.13-bandiga muvofiq hisoblangan, biroq so‘ndirish kunida to‘lanmagan foizlar);
2.8.2. asosiy qarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikka hisoblangan foizlar;
2.8.3. asosiy qarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik (ushbu Shartnomaning 1-ilovasida belgilangan kredit bo‘yicha asosiy qarzni so‘ndirish sanasi buzilganda yuzaga keladi);
2.8.4. ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan boshqa to‘lovlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik;
2.8.5. neustoyka summasi;
2.8.6. so‘ndirilishi lozim bo‘lgan hisoblangan muddatli foizlar;
2.8.7. asosiy qarz bo‘yicha muddatli qarzdorlik;
2.8.8. ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan boshqa to‘lovlar bo‘yicha muddatli qarzdorlik.

Agar amalga oshirilgan to‘lov summasi Qarz oluvchiga ajratilgan kredit bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lmasa, Qarz oluvchining qarzdorligi quyidagi navbat tartibida so‘ndiriladi:

- asosiy qarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik va kredit uchun muddati o‘tgan foiz to‘lovlari – mutanosib ravishda;
- kredit uchun hisoblangan muddatli foizlar va kredit bo‘yicha asosiy qarzga doir muddatli to‘lovlar;
- muddati o‘tgan asosiy qarz uchun oshirilgan foizlar, neustoyka summasi bo‘yicha to‘lovlar;
- Bankning kredit bo‘yicha qarzdorlikni so‘ndirish bilan bog‘liq boshqa xarajatlari.

Qarz oluvchining asosiy qarzni so‘ndirish bo‘yicha majburiyatlari Shartnomaning 1-ilovasida keltirilgan kredit Shartnomasi bo‘yicha So‘ndirish jadvalida belgilangan sanalardan oldin bajarilishi mumkin.
2.9. Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarz, foizlar, jarimalar, penyalar va/yoki kredit bo‘yicha boshqa to‘lovlarni so‘ndirish Bank tomonidan to‘lovchining arizalarini, Bank farmoyishlarini ijro etish va/yoki Qarz oluvchi yoki Kafilning barcha depozit hisobvaraqlari va bank kartalaridan pul mablag‘larini akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Qarz oluvchi shu orqali Bankka asosiy qarz, foizlar, jarimalar, penyalar va/yoki kredit bo‘yicha boshqa to‘lovlarni to‘lash hisobiga o‘z pul mablag‘larini so‘zsiz tartibda hisobdan chiqarish bo‘yicha akseptsiz, shartsiz va chaqirib olinmaydigan huquqni beradi.
2.10. Mablag‘lar Bankning tegishli hisobvaraqlariga kelib tushgan kun asosiy qarz va hisoblangan foizlarni so‘ndirish sanasi hisoblanadi.
2.11. Kredit bo‘yicha qarzdorlik naqd pul shaklida – Bank kassasida yoki maxsus qurilmasida, naqd pulsiz shaklda esa – Qarz oluvchining hisobvaraqlaridan Bankning mobil ilovasi yoki to‘lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar orqali Bank foydasiga o‘tkazish yo‘li bilan, Bank to‘lov maqsadini kreditni so‘ndirish uchun aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lgan taqdirda so‘ndiriladi.

Kredit bo‘yicha qarzdorlikni uchinchi shaxslar so‘ndirishga haqli. Kafil Bank bilan yozma kelishuvga ko‘ra kreditni qisman yoki to‘liq, shu jumladan muddatidan oldin so‘ndirishga haqli.

2.12. Qarz oluvchining ushbu Shartnomadan kelib chiqqan asosiy qarz summasini va hisoblangan foizlarni Bankka qaytarish bo‘yicha majburiyatlarini bajarish to‘liq hajmda yoki qisman Qarz oluvchi bilan tegishli topshiriq orqali bog‘langan uchinchi shaxs zimmasiga yuklatilishi mumkin.

2.13. So‘ndirish jadvalida (1-ilova) nazarda tutilgan kredit bo‘yicha asosiy qarzni so‘ndirish muddatlari buzilgan taqdirda, Bank kredit bo‘yicha muddati o‘tgan asosiy qarzning haqiqiy qoldig‘iga muddati o‘tgan qarzdorlik yuzaga kelgan birinchi kundan boshlab u to‘liq so‘ndirilgunga qadar yillik ____% (_____ foiz) hisobidan foizlar hisoblaydi. Qarz oluvchiga Bankning qarzdorlikni undirish to‘g‘risidagi talabi qo‘yilganidan so‘ng kredit muammoli aktiv toifasiga o‘tkaziladi va u bo‘yicha foizlarni keyingi hisoblash qonunchilikda va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.14. Kredit bo‘yicha asosiy qarz qoldig‘iga foizlar har kuni ish kuni oxirida yildagi 365 kun va har bir oydagi kunlarning haqiqiy soni hisobidan hisoblanadi. Foizlarni hisoblash kredit summasining bir qismi yoki to‘liq summasi berilgan kundan boshlanadi. Kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi o‘zgarmasdir.

2.15. Kreditni so‘ndirish jadvalida belgilangan sanalardan oldin asosiy qarzni so‘ndirish hisobiga kelib tushgan to‘lovlar ushbu Shartnomaning 2.8-bandiga muvofiq Bank tomonidan ko‘rsatilgan majburiyatlarni so‘ndirishga – Kreditni so‘ndirish jadvalida belgilangan, muddati bo‘yicha eng yaqin kredit to‘lovlari hisobiga yo‘naltiriladi.

2.16. Kreditni muddatidan oldin (So‘ndirish jadvalida nazarda tutilgan sanadan oldin) so‘ndirish to‘liq miqdorda ham, qisman miqdorda ham amalga oshirilishi mumkin. Muddatidan oldin so‘ndirish uchun Qarz oluvchining Bank shakli bo‘yicha qog‘oz shaklida bayon etilgan yoki mobil ilovada Qarz oluvchining roziligi bilan faollashtiriladigan topshirig‘i (farmoyishi) zarur. Kreditni muddatidan oldin qisman so‘ndirish Qarz oluvchining muddatidan oldin so‘ndirilgan summalarga kamaytirilgan keyingi to‘lovlarni So‘ndirish jadvalida nazarda tutilgan sanalarda so‘ndirish bo‘yicha majburiyatlarini bekor qilmaydi.

2.17. «Octomobile» mobil ilovasidan so‘ndirish uchun foydalanilgan taqdirda, Qarz oluvchi to‘lovni amalga oshirishdan oldin quyidagi so‘ndirish usullaridan birini tanlaydi: «Jadval bo‘yicha so‘ndirish» yoki «Muddatidan oldin so‘ndirish». «Jadval bo‘yicha so‘ndirish» virtual tugmasi tanlangan taqdirda, kiritilayotgan summa Qarz oluvchining depozit hisobvarag‘iga o‘tkaziladi va keyinchalik mos ravishda 2.8-bandda nazarda tutilgan navbat tartibida va So‘ndirish jadvalida nazarda tutilgan sanada so‘ndirishga yo‘naltiriladi. Bunda rejali to‘lov so‘ndirilganidan keyin rejali to‘lov summasidan ortiqcha bo‘lgan pul mablag‘lari keyingi rejali to‘lovlar sanalarida so‘ndirish uchun Qarz oluvchining ko‘rsatilgan depozit hisobvarag‘ida qoladi.

Qarz oluvchi «Muddatidan oldin so‘ndirish» virtual tugmasini tanlagan taqdirda, to‘lov summasi ushbu Shartnomaning 2.8-bandida nazarda tutilgan navbat tartibida qarzdorlikni so‘ndirishga yo‘naltiriladi.

2.18. Bank o‘z vaqtida va ixtiyoriy ravishda so‘ndirilmagan kredit bo‘yicha qarzdorlikni Qarz oluvchining roziligini oldindan olmasdan uning mavjud bank hisobvaraqlari va bank kartalaridan suddan tashqari tartibda hisobdan chiqaradi. Bunday hollarda boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlar va kartalardan bunday hisobdan chiqarish munosabati bilan yuzaga kelgan xarajatlar ko‘rinishida Bankka yetkazilgan zararni qoplash summasini Bank Qarz oluvchidan oldindan rozilik olmasdan hisobdan chiqaradi. Agar bunday hisobdan chiqarish Bankda ochilgan bank hisobvarag‘i va/yoki kartasidan amalga oshirilgan bo‘lsa, Qarz oluvchi muddati o‘tgan qarzdorlikni so‘ndirish hisobiga majburiy hisobdan chiqarganlik uchun Bankning komission haqini Bank tariflarida nazarda tutilgan miqdorlarda to‘laydi.

2.19. Kreditdan maqsadli foydalanilganligini tasdiqlash maqsadida Qarz oluvchi qayta moliyalanadigan kredit shartnomalari bo‘yicha pul majburiyatlarini to‘liq hajmda bajarishi va Bankka ularning bajarilganligi tasdig‘ini taqdim etishi shart. Bajarilganlik Kredit byurosi ma’lumotlari va/yoki Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida tasdiqlanadi.

2.20. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo‘yicha kredit berilgan kundan boshlab 21 (yigirma bir) kalendar kunidan kechiktirmasdan (oxirgi kun ham shu muddatga kiradi) Bankka qayta moliyalanadigan kredit shartnomalari bo‘yicha pul majburiyatlari to‘liq bajarilganligini va/yoki ular bekor qilinganligini (tugatilganligini) tasdiqlovchi kreditor-bankning ma’lumotnomasini taqdim etishi shart. Tasdiq ushbu bandda belgilangan muddatda taqdim etilmagan taqdirda, Bank Qarz oluvchi majburiyatlarining bajarilishi monitoringini amalga oshirishga haqli. Qayta moliyalanadigan kredit kredit berilgan kundan boshlab 20 (yigirma) kalendar kuni ichida so‘ndirilmagan taqdirda, Bank 21 (yigirma birinchi) kalendar kunidan boshlab 2.1.3-bandga muvofiq kredit bo‘yicha oshirilgan foiz hisoblashga haqli.

3. KREDIT QAYTARILISHINING TA’MINOTI, BANKNING HUQUQLARI VA TA’MINOTGA NISBATAN TA’SIR CHORALARI.

3.1. Ushbu Shartnoma bo‘yicha beriladigan kredit quyidagilar bilan ta’minlanadi: *(Quyida ko‘rsatilgan bandlar ularni rasmiylashtirishning xronologik tartibida ko‘rsatilishi lozim)*:

a) Bank tomonidan ma’qullangan sug‘urta shartlari asosida sug‘urta kompaniyasining (sug‘urta kompaniyasining tashkiliy-huquqiy shakli ko‘rsatilgan to‘liq nomi) (matnda bundan buyon – «Sug‘urtalovchi») summa raqamlarda (summa so‘z bilan) so‘m miqdorida kreditni so‘ndirmaslik tavakkalchiligini sug‘urtalash bilan. **(sana)gacha / ushbu shartnoma bo‘yicha kredit berilgunga qadar / ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab (kunlar soni raqamlarda va so‘z bilan) kalendar kuni ichida** Bank Sug‘urtalovchi bilan summa raqamlarda (summa so‘z bilan) so‘m miqdorida kreditni so‘ndirmaslik tavakkalchiligini sug‘urtalash shartnomasini tuzadi va Sug‘urtalovchiga sug‘urta mukofotini to‘laydi.

b) (kafilning nomi) (bundan buyon – «Kafil») kafilligi bilan, summa raqamlarda (summa so‘z bilan) so‘m miqdorida. Kafillikning aniq shartlari Bank, Qarz oluvchi va Kafil o‘rtasida tuzilgan tegishli kafillik shartnomasida kelishiladi.

v) _____ sh., _____ tumani, _____ ko‘chasi, ____-uyda joylashgan va mulk huquqi asosida (mulkdorning nomi)ga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk (bundan buyon – «Garov narsasi») garovi bilan – Bank va Qarz oluvchi tomonidan imzolangan (agar garovga qo‘yuvchi uchinchi shaxs bo‘lsa – Bank, Qarz oluvchi va (Garovga qo‘yuvchining nomi) tomonidan imzolangan) garov narsasining qiymatini kelishish dalolatnomasiga muvofiq ro‘yxat bo‘yicha va summa raqamlarda (summa so‘z bilan) so‘m miqdoridagi kelishilgan garov qiymati bo‘yicha. Garovning aniq shartlari tegishli notarial tasdiqlangan garov shartnomasi bilan belgilanadi. Qarz oluvchi Garov narsasini sug‘urta shartlari Bank tomonidan ma’qullangan sug‘urta kompaniyasi orqali sug‘urtalash va ushbu sug‘urtani ushbu Shartnomaning butun amal qilish davri mobaynida ta’minlash majburiyatini oladi. Sug‘urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi Bank hisoblanadi. Lozim darajada rasmiylashtirilgan tegishli sug‘urta shartnomasi, sug‘urta polisi va Garov narsasining notarial tasdiqlangan garov shartnomasi Qarz oluvchi tomonidan Bankka (sana)gacha / ushbu shartnoma bo‘yicha kredit berilgunga qadar / ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab (kunlar soni raqamlarda va so‘z bilan) kalendar kuni ichida taqdim etilishi lozim. Bank o‘z xohishiga ko‘ra o‘z mablag‘lari hisobidan Qarz oluvchini xabardor qilmasdan kreditni qaytarmaslik (so‘ndirmaslik) tavakkalchiligini sug‘urtalashga haqli. Bunda sug‘urta mukofoti to‘liq yoki qisman Bankning o‘z mablag‘lari hisobidan to‘lanishi mumkin. Sug‘urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi Bank hisoblanadi.

g) «_____» rusumli, _____-yilda ishlab chiqarilgan, rangi _____, dvigatel №_____, kuzov _____, davlat raqami _____ bo‘lgan, (mulkdorning nomi)ga tegishli avtomobil/maxsus texnika (bundan buyon – «Garov narsasi») garovi bilan – Bank va Qarz oluvchi tomonidan imzolangan (agar garovga qo‘yuvchi uchinchi shaxs bo‘lsa – Bank, Qarz oluvchi va (Garovga qo‘yuvchining nomi) tomonidan imzolangan) garov narsasining qiymatini kelishish dalolatnomasiga muvofiq ro‘yxat bo‘yicha va summa raqamlarda (summa so‘z bilan) so‘m miqdoridagi kelishilgan garov qiymati bo‘yicha. Garovning aniq shartlari tegishli notarial tasdiqlangan garov shartnomasi bilan belgilanadi. Qarz oluvchi «Garov narsasi»ni sug‘urta shartlari Bank tomonidan ma’qullangan sug‘urta kompaniyasi orqali sug‘urtalash va ushbu sug‘urtani ushbu shartnomaning butun amal qilish davri mobaynida ta’minlash majburiyatini oladi. Sug‘urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi

Bank hisoblanadi. Lozim darajada rasmiylashtirilgan tegishli sug‘urta shartnomasi, sug‘urta polisi va «Garov narsasi»ning notarial tasdiqlangan garov shartnomasi Qarz oluvchi tomonidan Bankka (sana)gacha / ushbu shartnoma bo‘yicha kredit berilgunga qadar / ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab (kunlar soni raqamlarda va so‘z bilan) kalendar kuni ichida taqdim etilishi lozim.

3.2. Kreditni qaytarmaslik (so‘ndirmaslik) tavakkalchiligini sug‘urtalashning lozim darajada rasmiylashtirilgan polisi ushbu Shartnoma tuzilganidan so‘ng kredit berilgan sanaga qadar Bankka taqdim etiladi.

3.3. Kafil murojaat qilgan taqdirda, Bank bunday kafillikni kredit qaytarilishining qo‘shimcha ta’minoti sifatida qabul qilishga haqli.

3.4. Bank o‘z xohishiga ko‘ra o‘zining talab qilish huquqlarini Kafilga yoki sug‘urta hodisasi yuz berganligi munosabati bilan sug‘urta tovonini to‘lash to‘g‘risidagi ariza bilan Sug‘urtalovchiga yoxud Qarz oluvchiga nisbatan qo‘llaydi. Sug‘urtalovchiga sug‘urta tovonini to‘lash to‘g‘risida talab qo‘yilishi Bank tomonidan Qarz oluvchiga yoki Kafilga kreditni muddatidan oldin so‘ndirish to‘g‘risida talab qo‘yish imkoniyatini istisno etmaydi.

3.5. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarining bajarilishi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan o‘ziga tegishli barcha mol-mulki bilan javob beradi.

4. QARZ OLUVCHI BILAN O‘ZARO MUNOSABAT TARTIBI

4.1. Bank muddati o‘tgan qarzdorlikni undirish bo‘yicha chora-tadbirlarni boshlaganida qonunchilikda belgilangan talablar va cheklovlarga rioya etilishini ta’minlaydi.

4.2. Qarzdorlikni qaytarishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda Bank Qarz oluvchi bilan quyidagi shakllarda o‘zaro munosabat o‘rnatishi mumkin:

- shaxsan murojaat qilish, telefon qo‘ng‘iroqlari (bevosita o‘zaro munosabat);
- axborotni vositachilar yoki uchinchi shaxslar orqali yetkazish;
- Qarz oluvchining ro‘yxatdan o‘tgan manziliga xatlar yuborish;
- Qarz oluvchi (yoki Kafil) bilan muzokaralar o‘tkazish va kelishuvlarni bayonnoma shaklida rasmiylashtirish.

4.3. Bank Qarz oluvchini qarzdorlikni so‘ndirish zarurligi va kredit bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlari to‘g‘risida Qarz oluvchi tomonidan kredit olish jarayonida Bankka taqdim etilgan har qanday aloqa vositalaridan foydalangan holda xabardor qiladi. Bunday xatlar va xabarlar Qarz oluvchiga pochta xizmati, SMS-xabarlar, elektron pochta va ijtimoiy messenjerlar – Telegram, WhatsApp orqali yuborilishi mumkin. Topshirilganligi haqida xabarnomali buyurtma xat topshirilgan sana yoki elektron xabar yuborilgan sana bildirishnoma yuborilgan sana hisoblanadi.

4.4. Qarz oluvchi bilan o‘zaro munosabat davlat tilida yoki shartnoma tilida amalga oshirilishi lozim.

4.5. Qarz oluvchi o‘z tashabbusi bilan ushbu Shartnoma shartlariga har qanday o‘zgartirish kiritilganligi uchun Bankka O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 5 baravari miqdorida bir martalik komissiya to‘laydi. Ushbu Shartnoma shartlariga o‘zgartirish kiritganlik uchun komissiya ushbu Shartnoma shartlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi qo‘shimcha kelishuvlar imzolangan sanadan boshlab 3 (uch) kalendar kuni ichida to‘lanadi.

5. BANKNING HUQUQLARI

5.1. Bank Qarz oluvchining moliyaviy holatini, kredit bo‘yicha qarzdorlik qaytarilishining ta’minlanganligini, kredit yukining Qarz oluvchining joriy moliyaviy holatiga mosligini, Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish uchun kutilayotgan pul tushumlarining taxminiy muddatlari va miqdorlarini, Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishning imkonsizligiga olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar (shu jumladan ishdan ayrilish, ish haqi va boshqa daromadlarni o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra kechikib olish, ish joyini o‘zgartirish, sog‘liqning yomonlashishi natijasida daromadlarning kamayishi) yuzaga kelish ehtimolini tekshirish huquqiga ega. Bunday tekshiruvlarni o‘tkazish davriyligi Bank tomonidan belgilanadi.

5.2. Asosiy qarzni, foizlarni so‘ndirish, jarima va penyalarni to‘lash, Bank tomonidan to‘langan sug‘urta mukofotini qoplash va/yoki Shartnoma bo‘yicha boshqa to‘lovlar muddatlari kelganda, Bank Qarz oluvchi yoki Kafilning barcha hisobvaraqlari va bank kartalaridan mablag‘larni akseptsiz va so‘zsiz tartibda hisobdan chiqarish bo‘yicha chaqirib olinmaydigan va shartsiz huquqqa ega bo‘ladi.
5.3. Qarz oluvchidan asosiy qarz summasi va hisoblangan foizlarni o‘z ichiga olgan muddati o‘tgan qarzdorlik summasini undirish yoki kreditni muddatidan oldin undirishga qaratish to‘g‘risidagi talab Bank tomonidan sud buyrug‘ini berish to‘g‘risida ariza bilan sudga murojaat qilish, ijro xatini rasmiylashtirish to‘g‘risida ariza bilan notarial idoraga murojaat qilish yoxud da’vo tartibida ish yuritishni boshlash yo‘li bilan qo‘yilishi mumkin.
5.4. Quyidagi hollarda:

- Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo‘yicha, shuningdek Qarz oluvchida Bank oldida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan boshqa majburiyatlar doirasida o‘z zimmasiga olgan majburiyatlar buzilganda va/yoki bajarilmaganda va/yoki lozim darajada bajarilmaganda;
- Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashganda;
- garov narsasi (narsalari) va/yoki uning (ularning) bir qismi yo‘q qilinganda, qiymati pasayganda, qisman yoki to‘liq yo‘qotilganda;
- Qarz oluvchi tomonidan noto‘g‘ri ma’lumot taqdim etilganligi faktlari Bank tomonidan aniqlanganda;
- Qarz oluvchi bank nazoratidan bo‘yin tovlaganda;
- kreditdan maqsadsiz foydalanilganligi faktlari Bank tomonidan aniqlanganda;
- ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarz, foizlar va/yoki kredit bo‘yicha boshqa to‘lovlar o‘z vaqtida so‘ndirilmaganda;
- kreditni qaytarmaslik tavakkalchiligini oshiruvchi har qanday omillar paydo bo‘lganda;
- Qarz oluvchi tomonidan hisobvaraq va/yoki hisobvaraqlar yopilganda va boshqa bankka o‘tkazilganda;
- garov narsalarini sug‘urtalash shartnomalari bo‘yicha sug‘urta badallari to‘lanmaganda;
- kreditni so‘ndirmaslik tavakkalchiligini sug‘urtalash shartnomasining amal qilishi tugatilganda yoki u bekor qilinganda;
- ushbu Shartnomaning boshqa shartlari buzilganda va/yoki bajarilmaganda.

Bank quyidagi huquqlarga ega:

- kreditni sud tartibida va suddan tashqari tartibda muddatidan oldin undirishga qaratish;
- kreditni muddatidan oldin undirishga qaratish, shu jumladan garov narsasiga (narsalariga) va/yoki uning (ularning) qismiga (qismlariga) undiruv qaratish yo‘li bilan, va/yoki Kafilga va/yoki Sug‘urtalovchiga talab qo‘yish;
- ushbu Shartnoma bo‘yicha yangi summalar va/yoki yangi kreditlar berishni to‘xtatish;
- Qarz oluvchi/Kafilning Bankda ochilgan har qanday hisobvarag‘idan mablag‘larni akseptsiz va so‘zsiz tartibda hisobdan chiqarib, ularni ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarz, foizlar va/yoki kredit bo‘yicha boshqa to‘lovlarni so‘ndirishga yo‘naltirish, bunday mablag‘lar mavjud bo‘lmaganda esa – boshqa har qanday hisobvaraqlardan, shu jumladan boshqa banklardagi hisobvaraqlardan hisobdan chiqarish.

5.5. Bank ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlarini to‘liq yoki qisman boshqa shaxsga Qarz oluvchining roziligi bilan o‘tkazishga haqli, qonunchilikda bunday rozilik talab etilmaydigan hollar bundan mustasno.
5.6. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 1 (bir) oy mobaynida ushbu Shartnoma bo‘yicha kreditdan foydalanmagan taqdirda, Bank bekor qilish taxmin qilinayotgan sanadan 3 (uch) kalendar kuni oldin Qarz oluvchini bu haqda yozma ravishda xabardor qilish yo‘li bilan ushbu Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli.
5.7. Qarz oluvchi majburiyatlarni lozim darajada bajarmagan yoki bajarmagan taqdirda, Bank ushbu Shartnomani ijro etishdan bir tomonlama tartibda voz kechishga va Shartnomani bekor qilishga haqli.
5.8. Bank kredit berilgunga qadar Qarz oluvchining kredit tarixini tekshirish uchun Kredit byurosiga takroriy so‘rov yuborishga haqli.

5.9. Bank 1.3-bandda ko‘rsatilgan qayta moliyalanadigan kreditlarning so‘ndirilganligi to‘g‘risida kredit byurosiga so‘rov yuborishga haqli.
5.10. Bank firibgarlik yoki g‘ayriqonuniy operatsiyalarning oldini olish va ularga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida kredit berishni bir tomonlama tartibda to‘xtatib turishga yoki berilgan kredit summasini sarflashga cheklovlar o‘rnatishga haqli. Ilgari o‘rnatilgan cheklovni olib tashlash maqsadida Bank qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkazishga va Qarz oluvchidan zarur tasdiqlarni olishga haqli.
5.11. Bank o‘z xohishiga ko‘ra Shartnomada ko‘rsatilgan har qanday huquq/talabni qo‘llashi yoki qo‘llamasligi mumkin. Ushbu huquqlar/talablarni qo‘llamaslik yoki qisman qo‘llash ushbu huquqlar/talablardan voz kechishni anglatmaydi va ular ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning amal qilish muddati davomida istalgan vaqtda qo‘llanilishi mumkin.

6. BANKNING MAJBURIYATLARI

6.1. Bank quyidagi majburiyatlarni oladi:
6.1.1. Qarz oluvchiga ushbu Shartnomada nazarda tutilgan kredit summasi doirasida va ushbu Shartnomada kelishilgan shartlarda qarz mablag‘larini berish;
6.1.2. ushbu Shartnomaning 2-bo‘limiga muvofiq kreditning foydalanilayotgan qismiga foizlar hisoblash;
6.1.3. Qarz oluvchiga ushbu Shartnomaning bir asl nusxasini, shuningdek Qarz oluvchining so‘roviga ko‘ra uning ko‘chirma nusxasini taqdim etish.
6.2. Kreditni qaytarish jadvali rasmiylashtirilganidan so‘ng, agar kredit bo‘yicha moliyalashtirishni boshlash muddatlari o‘zgarsa yoki Kredit shartnomasi shartlari taraflar tomonidan qayta ko‘rib chiqilsa (shu jumladan kredit restrukturizatsiya qilinganda va/yoki kredit bo‘yicha foiz stavkasi o‘zgartirilganda) yoxud Qarz oluvchi tomonidan kredit muddatidan oldin qisman so‘ndirilgan taqdirda, kredit bo‘yicha to‘lovlarni so‘ndirish sanalari va muddatlari, shuningdek kredit bo‘yicha oraliq to‘lovlar summasi o‘zgargan hollarda Bank so‘ndirish jadvalini yangilaydi va uni Bankning mobil ilovasiga joylashtiradi yoki Qarz oluvchining so‘roviga ko‘ra Bank bo‘linmasida taqdim etadi. Bunda kreditni so‘ndirishning yangilangan jadvali ilgari mavjud bo‘lgan jadvalni bekor qiladi.
6.3. Bank kredit bo‘yicha o‘zining talab qilish huquqlarini sug‘urta kompaniyasiga o‘tkazgan (subrogatsiya) taqdirda, bunday o‘tkazish sanasidan boshlab uch ish kuni ichida Qarz oluvchini (va kafillarni, agar mavjud bo‘lsa) kelishilgan aloqa kanallari orqali yozma shaklda xabardor qilishi shart.

7. QARZ OLUVCHINING HUQUQLARI

7.1. Ushbu shartnoma shartlariga muvofiq kredit olish va undan ushbu Shartnoma shartlarida belgilangan kreditlash muddati davomida foydalanish.
7.2. Qarz oluvchi kredit bo‘yicha qarzdorlikni istalgan vaqtda to‘liq yoki qisman, Bank tomonidan jarima sanksiyalari undirilmagan holda muddatidan oldin so‘ndirish huquqiga ega.
7.3. Kredit shartnomasi imzolanganidan so‘ng Qarz oluvchi kredit summasi uning boshqa banklardagi amaldagi kreditlarni so‘ndirish (qayta moliyalash) uchun mo‘ljallangan tranzit hisobvarag‘iga o‘tkazilgunga qadar kredit olishdan voz kechishga haqli.
7.4. Bankdan kredit holati to‘g‘risida axborot va tegishli maslahatlar olish.
7.5. Kredit olgunga qadar kreditlash shartlari, kredit berish tartibi bilan tanishish.
7.6. Kreditni so‘ndirishda muammolar yuzaga kelgan taqdirda, Qarz oluvchi kreditni qaytarishning muqobil mexanizmlarini (masalan, kredit shartlarini o‘zgartirish, uy-joyni ixtiyoriy sotish yoki unga bo‘lgan mulk huquqini keyinchalik qayta ro‘yxatdan o‘tkazish orqali kredit bo‘yicha qarzni boshqa shaxsga o‘tkazish va h.k.) aniqlash va muhokama qilish uchun Bankka murojaat qilishga haqli.

8. QARZ OLUVCHINING MAJBURIYATLARI

Qarz oluvchi quyidagi majburiyatlarni oladi:

8.1. Ushbu Shartnomani imzolash bilan bir vaqtda Bankka Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo‘yicha olinadigan pul mablag‘larini Bank tomonidan Shartnomaning 1.3-bandiga muvofiq maqsadli yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkazish to‘g‘risida tegishli ariza taqdim etish.

8.2. Kreditdan foydalanish jarayonida asosiy tamoyillarga: muddatlilik, qaytarishlilik, to‘lovlilik, ta’minlanganlik, maqsadli foydalanishga rioya qilish.

8.3. Ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda asosiy qarz, foizlar, jarimalar, penyalar va/yoki ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan kredit bo‘yicha boshqa to‘lovlarni so‘ndirish.

8.4. Ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq Bankdan muddatidan oldin qaytarish to‘g‘risidagi talab olinganda olingan kreditni qaytarish hamda kreditdan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni va boshqa to‘lovlarni to‘lash.

8.5. Sug‘urta hodisasi yuz berganda Bankka qoplab berilgan summani Sug‘urtalovchiga to‘lash.

8.6. Ushbu Shartnomaning 5.1-bandida ko‘rsatilgan Bankning nazorat funksiyalarini amalga oshirish uchun:

8.6.1. Bank, uning xodimlari va huquqiy vorislari tomonidan Qarz oluvchi taqdim etgan ma’lumotlarni har qanday manbalar, axborot va hujjatlardan foydalangan holda, shu jumladan yashash joyi, ish joyi va boshqa joylarga tashrif buyurish yo‘li bilan tekshirish va qayta tekshirish imkoniyatini berish;

8.6.2. Bankning yozma so‘roviga ko‘ra Bank so‘rovi yuborilgan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kuni ichida individual ma’lumotlar, shaxsga doir ma’lumotlar, biografik ma’lumotlar yoki boshqa axborotni taqdim etish. Yozma so‘rov topshirilgan sana yoki pochta orqali jo‘natilgan sana uning yuborilgan sanasi hisoblanadi.

8.7. Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashishiga va Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo‘yicha Bank oldidagi majburiyatlarning bajarilmasligi va/yoki lozim darajada bajarilmasligi xavfi yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan hech qanday majburiyat va choralarni o‘z zimmasiga olmaslik.

8.8. Ushbu Shartnoma shartlarida ko‘rsatilgan tartib va muddatlarda tegishli shartnomalar/hujjatlarni, shuningdek So‘ndirish jadvalini tuzish/imzolash/rasmiylashtirish.

8.9. Qarz oluvchi quyidagi hollarda Bankning talabiga ko‘ra kredit qaytarilishining qo‘shimcha ta’minotini taqdim etish majburiyatini oladi:

8.9.1. Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashganda;

8.9.2. kreditni qaytarmaslik tavakkalchiligini oshiruvchi boshqa omillar paydo bo‘lganda.

8.10. Qarz oluvchi shu orqali Bankka asosiy qarz, foizlar bo‘yicha to‘lov, jarimalar, penyalar va/yoki ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan kredit bo‘yicha boshqa to‘lovlarni to‘lash muddati kelganda Qarz oluvchining Bankdagi har qanday hisobvarag‘idan, shuningdek Qarz oluvchining boshqa banklardagi hisobvaraqlaridan ushbu Shartnomaning 2.8-bandida nazarda tutilgan navbat tartibida pul mablag‘larini so‘zsiz tartibda hisobdan chiqarish bo‘yicha akseptsiz, shartsiz va chaqirib olinmaydigan huquqni beradi.

8.11. Qarz oluvchi Bankning talabiga ko‘ra Bank ko‘rgan barcha xarajatlar va zararlarni, shu jumladan ushbu Shartnoma doirasida berilayotgan kredit bo‘yicha qarzdorlikni (asosiy qarz, foizlar, jarimalar, penyalar va boshqa to‘lovlar) majburiy va/yoki muddatidan oldin undirish choralarini ko‘rish munosabati bilan yuzaga kelganlarini qoplash majburiyatini oladi.

8.12. Kredit olish uchun arizada ko‘rsatilgan ma’lumotlar o‘zgarganligi, shu jumladan Qarz oluvchining pasport ma’lumotlari, ro‘yxatdan o‘tgan manzili, haqiqiy yashash joyi, ish joyi, familiyasi, ismi, otasining ismi o‘zgarganligi va/yoki Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa o‘zgarishlar yuzaga kelganligi to‘g‘risida bunday o‘zgarishlar sodir bo‘lgan sanadan boshlab 3 (uch) kalendar kuni ichida Bankni xabardor qilish.

8.13. Bankning ushbu Shartnomada va/yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan har qanday huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilmaslik.

8.14. Qarz oluvchi Bankning yozma roziligisiz ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlarini to‘liq yoki qisman boshqa shaxsga o‘tkazishga haqli emas.

8.15. Bankka u tomonidan to‘langan sug‘urta mukofoti summasini, sud xarajatlarini, qarzdorlikni majburiy undirish bilan bog‘liq xarajatlarni, shuningdek Bank kredit berish munosabati bilan ko‘rgan zararlarni qoplash.
8.16. Qarz oluvchi quyidagi majburiyatlarni oladi: Bank tomonidan yuboriladigan bildirishnomalar, shu jumladan mobil ilovadagi PUSH-bildirishnomalar, aniqlangan firibgarlik alomatlari, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, frod-insidentlarga oid SMS-bildirishnomalar bilan sinchiklab tanishib borish;
- Bank tomonidan taqdim etiladigan aniqlangan firibgarlik alomatlari to‘g‘risidagi axborotni hisobga olish va ko‘rsatilgan bildirishnomalarni olganidan keyin har qanday to‘lov operatsiyalarini tasdiqlashda alohida ehtiyotkorlik ko‘rsatish;
- bank xizmatlaridan foydalanish imkonini beruvchi qurilma yo‘qolganligi (o‘g‘irlanganligi) yoki bunday qurilma ustidan uchinchi shaxslar tomonidan nazorat o‘rnatilganligi to‘g‘risida Bankni darhol, biroq fakt aniqlangan paytdan boshlab 1 (bir) kundan kechiktirmay xabardor qilish;
- operatsiya uning roziligisiz amalga oshirilganligi fakti to‘g‘risida bunday fakt aniqlangan paytdan boshlab 1 (bir) kun ichida Bankni xabardor qilish;
- aloqa uchun zarur bo‘lgan kontakt ma’lumotlari o‘zgargan taqdirda, bunday o‘zgarishlar sodir bo‘lgan paytdan boshlab 3 (uch) kun ichida ularni Bankka taqdim etish;
- Bankning so‘roviga ko‘ra operatsiya Qarz oluvchining o‘zi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilganligi yoki uning topshirig‘i yoxud ixtiyoriy roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan bajarilganligi to‘g‘risida ma’lumot taqdim etish;
- Bankka firibgarlik holatlari to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etish.

9. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

9.1. Bank kredit berish majburiyatini bajarmaganlik yoki o‘z vaqtida bajarmaganlik uchun Qarz oluvchi oldida qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.
9.2. Bank ushbu Shartnoma shartlarining buzilishini (xizmat kamchiliklarini) Qarz oluvchining asoslantirilgan talabi kelib tushgan paytdan boshlab yigirma kun ichida bartaraf etishi shart. Aniqlangan buzilishlar belgilangan muddatda bartaraf etilmagan taqdirda, Bank Qarz oluvchiga kreditdan bir oy foydalanilganlik uchun Bank olishi lozim bo‘lgan foiz daromadining 1% miqdorida neustoyka (penya) to‘lashi shart.
9.3. Kredit berish majburiyati bajarilmagan yoki o‘z vaqtida bajarilmagan taqdirda, Shartnomaning 5.4-bandida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, Qarz oluvchi Bankdan kechiktirilgan har bir kun uchun berilmagan kredit summasining 0,1% miqdorida, biroq o‘z vaqtida berilmagan kredit summasining 5 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda penya undirishga haqli.
9.4. Bank texnik nosozliklar (elektr ta’minoti va aloqa tarmoqlarining o‘chishi/shikastlanishi, to‘lov tizimlari ishidagi texnik nosozliklar) yuz berganda, shuningdek Qarz oluvchi tomonidan mablag‘larni hisobvaraqqa o‘tkazish uchun rekvizitlar noto‘g‘ri/to‘liq bo‘lmagan holda ko‘rsatilganda majburiyatlarni bajarmaganlik yoki o‘z vaqtida bajarmaganlik uchun javobgar bo‘lmaydi.
9.5. Qarz oluvchi Shartnoma bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida Bankka yetkazilgan ziyon va zararlar uchun mulkiy javobgar bo‘ladi.
9.6. Bank ushbu shartnoma bo‘yicha so‘ndirilmagan mablag‘larni qaytarishni, barcha hisoblangan foizlar va boshqa qo‘shimcha talablarni to‘lashni, shuningdek Qarz oluvchi tomonidan Bankka yetkazilgan barcha zarar va ziyonlarni Qarz oluvchining ish haqi, uning boshqa pul mablag‘lari va boshqa likvid mol-mulki hisobidan qoplashni talab qilishga haqli.
9.7. Qarz oluvchi o‘zi va uning qurilmalaridan foydalanuvchilar tomonidan masofaviy bank xizmati ko‘rsatish tizimlarida, uchinchi shaxslarning mobil ilovalarida sodir etilgan barcha harakatlar uchun moliyaviy tavakkalchiliklarni va javobgarlikni mustaqil ravishda o‘z zimmasiga oladi.
9.8. Qarz oluvchi tomonidan kredit mablag‘laridan maqsadsiz foydalanilganligi faktlari aniqlangan taqdirda, Qarz oluvchi Bankka kreditdan maqsadsiz foydalanilgan summaning 90% (to‘qson foizi) miqdorida jarima to‘laydi. Jarimaning to‘lanishi Qarz oluvchini ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

10. YENGIB BO‘LMAYDIGAN KUCH HOLATLARI (FORS-MAJOR)

10.1. Agar Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishning imkonsizligi tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kabi yengib bo‘lmaydigan kuch holatlarining; yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlarning, xususan urush holati, blokada, davlat manfaatlarini ko‘zlab import va eksportga qo‘yilgan taqiqlarning (ular Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan taqdirda); davlat organlari tomonidan ushbu Shartnoma shartlarini bajarishga to‘sqinlik qiluvchi qonunchilik hujjatlari qabul qilinishining oqibati bo‘lsa, taraflar Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgar bo‘lmaydilar. Bunday holda Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari amal qiladigan vaqtga kechiktiriladi.
10.2. Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajara olmaydigan taraf yengib bo‘lmaydigan kuch holatlarining boshlanishi va tugashi to‘g‘risida ikkinchi tarafni darhol, biroq har qanday holatda ham ular boshlanganidan keyin 10 kundan kechiktirmay yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

11. BOSHQA SHARTLAR

11.1. Ushbu Shartnoma taraflar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va Bank hamda Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z zimmalariga olingan barcha majburiyatlar to‘liq bajarilgunga qadar amal qiladi.
11.2. Ushbu Shartnoma shartlariga har qanday o‘zgartirish taraflarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra kiritiladi va yozma kelishuv bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu Shartnomaga har qanday qo‘shimcha kelishuvlar, agar ular Bankning xabarisiz tuzilgan bo‘lsa va ko‘rsatilgan kelishuvlarda Bankning imzolari va muhrlari bo‘lmasa, yuridik kuchga ega bo‘lmaydi.
11.3. Nizolar yuzaga kelgan taqdirda bank yozuvlari ushbu Shartnoma bo‘yicha har ikki taraf majburiyatlarining ustuvor dalili hisoblanadi.
11.4. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, Bankning xohishiga ko‘ra kredit bo‘yicha qarzdorlik amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda notarius tomonidan hujjatga qo‘yilgan ijro xati asosida undirilishi mumkin.
11.5. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelganda, har ikki taraf O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladi.
11.6. Qarz oluvchining to‘lov qobiliyatini skoring modellarini qo‘llagan holda baholash jarayonida Bank Qarz oluvchi to‘g‘risidagi erkin/ochiq foydalanish mumkin bo‘lgan har qanday axborotdan, shuningdek bunday turdagi servislarni yetkazib beruvchilardan olingan axborotdan, agar ushbu axborotni olish va undan foydalanish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmasa, foydalanishga haqli.
11.7. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan yoki u bilan bog‘liq barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar, shu jumladan uning tuzilishi, o‘zgartirilishi, ijro etilishi, buzilishi, bekor qilinishi, tugatilishi va haqiqiy emasligi bilan bog‘liq nizolar Bank joylashgan joydagi yoki Javobgar joylashgan joydagi O‘zbekiston Respublikasining tegishli fuqarolik ishlari bo‘yicha sudida yoxud Hakamlik sudining hakamlik sudyasi tomonidan ularning reglamentiga muvofiq hal qilinishi lozim. Bunda sudni tanlash huquqi Bankda qoladi.
11.8. Qarz oluvchi vafot etgan taqdirda, uning barcha huquq va majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda uning merosxo‘rlariga o‘tadi.
11.9. Qarz oluvchi ushbu Shartnomani imzolash orqali:
11.9.1. kreditlash shartlari, taraflarning majburiyatlari to‘g‘risida xabardorligini hamda so‘ndirish jadvali bilan tanishganligini va unga roziligini tasdiqlaydi;
11.9.2. o‘zining shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov berishga va o‘zining bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni: Bankka yuridik, buxgalteriya, auditorlik, axborot va konsalting xizmatlarini ko‘rsatuvchi uchinchi shaxslarga – agar bu mazkur xizmatni ko‘rsatish uchun zarur bo‘lsa va ushbu shaxslar mijoz to‘g‘risidagi bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni oshkor qilishdan yoki ulardan shaxsiy maqsadlarda foydalanishdan tiyilishga majbur bo‘lsa, shuningdek kreditlash va kreditni so‘ndirish jarayonida ishtirok etuvchi uchinchi shaxslarga taqdim etishga rozilik bildiradi. Ushbu rozilik

Shartnoma imzolangan paytdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan shaxsga doir ma’lumotlarni saqlash muddatlari tugaguniga qadar amal qiladi;

11.9.3. ushbu shartnoma shartlari va Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishiga oid ma’lumotlarni Kredit byurosiga va Kredit axborotining davlat reyestriga taqdim etishga rozilik bildiradi;

11.9.4. Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni lozim darajada bajarmaslik bilan bog‘liq tavakkalchiliklar, shu jumladan majburiyatlarni buzganlik uchun qo‘llaniladigan neustoyka (jarima, penya) va buning natijasida Qarz oluvchi xarajatlari summasi ortishi ehtimoli to‘g‘risida xabardorligini tasdiqlaydi;

11.9.5. Qarz oluvchi tomonidan bankning so‘roviga ko‘ra taqdim etilgan ma’lumotlarning tuzilayotgan Shartnoma shartlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi to‘g‘risida ogohlantirilgan;

11.9.6. o‘zi taqdim etgan axborotni tekshirish yoki qo‘shimcha identifikatsiya (shaxsni tasdiqlash) jarayonini o‘tkazish uchun, shuningdek ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish masalalari yuzasidan u bilan ushbu Shartnomaning 11.12-bandida ko‘rsatilgan aloqa kanallari orqali bog‘lanishga rozilik bildiradi.

11.10. Qarz oluvchi tomonidan bank operatsiyasi jarayonida masofaviy aloqa kanallari orqali berilgan tasdiqlar bosma hujjatdagi yozma imzo bilan bir xil yuridik ahamiyatga ega.

11.11. Taraflar raqamli shaklda tuzilgan hujjatlar Qarz oluvchi tomonidan imzolangan bosma hujjatlar bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligini kelishib oldilar. Binobarin, hujjatning raqamli shaklda tuzilganligi taraflar o‘rtasida nizo kelib chiqishi uchun asos bo‘la olmaydi.

11.12. Shartnomani tuzishda Taraflar o‘zaro aloqa o‘rnatish, bog‘lanish vositalari va axborot (xabarlar) almashish usullarini quyidagicha kelishib oldilar:

Qarz oluvchi: Mobil telefon (SMS-xabarlar va Telegram uchun): _____

Elektron pochta: _____

Bank: Elektron pochta: info@Octobank.uz, tel. +998 71 202 33 33.

11.13. Shartnoma ushbu Shartnomaning 2.2–2.3-bandlariga muvofiq summalar o‘tkazilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va Qarz oluvchi o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarguniga qadar amal qiladi.

11.14. Ushbu Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan 2 (ikki) nusxada, har bir taraf uchun bittadan tuzildi.

12. Taraflarning yuridik manzillari, imzolari va bank rekvizitlari

«Bank»	**«Qarz oluvchi»**
«Octobank» AJ **Vakillik h/v №** 29801000700000980333 **Bank kodi:** 00980 **STIR:** 203644820 **Manzil:** Toshkent sh., Furqat ko‘chasi, 2-uy **Tel:** +998 (__) _____ **«Octobank» AJ Boshqaruvchi direktori – chakana blok rahbari** **Borozdin A.O. _____ (imzo)**	**F.I.Sh.** _____ **Pasport ma’lumotlari:** _____ **JShShIR:** _____ **Manzil:** _____ **Tel:** +998 (__) _____ **Qarz oluvchi: _____(imzo)**

1-ilova
Jismoniy shaxsga Octo Restart kreditini berish to‘g‘risidagi
20___-yil «___»_____dagi ___-sonli shartnomaga

So‘ndirish jadvali

№	So‘ndirish sanasi	Kredit bo‘yicha asosiy qarz qoldig‘i	So‘ndirish summasi (so‘m)		
			asosiy qarz	foizlar*	jami*

* Qarz oluvchi kredit bo‘yicha to‘lovlarni so‘ndirish jadvalida nazarda tutilganidan farqli sanalarda so‘ndirgan taqdirda, to‘lov miqdori ushbu Shartnomaning 2.8 va 2.16-bandlari qoidalariga muvofiq asosiy qarz qoldig‘iga hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda qayta hisoblanishi lozim.

«Bank»	**«Qarz oluvchi»**
«Octobank» AJ **Vakillik h/v №** 29801000700000980333 **Bank kodi:** 00980 **STIR:** 203644820 **Manzil:** Toshkent sh., Furqat ko‘chasi, 2-uy **Tel:** +998 (__) _____ **«Octobank» AJ Boshqaruvchi direktori – chakana blok rahbari** **Borozdin A.O. _____ (imzo)**	**F.I.Sh.** _____ **Pasport ma’lumotlari:** _____ **JShShIR:** _____ **Manzil:** _____ **Tel:** +998 (__) _____ **Qarz oluvchi: _____(imzo)**